



## NASRIY ASARLAR MUTOLAASI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

*Ilmiy tadqiqotchi: Nomozova Nozima Sodiq qizi  
Samarqand davlat pedagogika institute magistrant*

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda nasriy asarlarni mutolaa qilishning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot jarayonida badiiy nasr namunalarini o‘qish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, voqealarni tahlil qilish, qahramonlar xatti-harakatiga baho berish hamda xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada nasriy asarlarni o‘qitishning samarali usullari, interfaol yondashuvlar va savol-javob metodlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari nasriy asarlarni tizimli va maqsadli mutolaa qilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil qaror qabul qilish, fikrini asoslash hamda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ilmiy ish natijalari boshlang‘ich ta’lim amaliyotida o‘qish darslarini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish hamda ularning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, nasriy asarlar, mutolaa jarayoni, o‘qish savodxonligi, interfaol metodlar, mantiqiy tafakkur, badiiy adabiyot, o‘quv faoliyati, pedagogik texnologiyalar.

Hozirgi globallashtirish va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni tahliliy va tanqidiy yondashuvga o‘rgatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa,



boshlang'ich sinf bosqichi o'quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi va shaxsiy fazilatlari shakllanadigan muhim davr bo'lib, ushbu bosqichda ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik masala sanaladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish darslari o'quvchilarning nafaqat savodxonligini oshirish, balki ularning fikrlash faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, nasriy asarlar o'quvchilarga hayotiy voqealar, insoniy munosabatlar hamda axloqiy qadriyatlarni anglash imkonini beradi. Bunday asarlarni mutolaa qilish jarayonida o'quvchilar matn mazmunini tahlil qilish, voqealar sabab va oqibatlarini aniqlash, qahramonlar xarakterini baholash hamda mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlardan foydalanishni talab etadi. Nasriy asarlar asosida tashkil etilgan muammoli vaziyatlar, munozaralar va tahliliy topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy, ijodiy hamda refleksiv tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini shakllantirishda nasriy asarlar mutolaasining metodik imkoniyatlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda nasriy asarlar mutolaasining o'rni va samaradorligini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

O'qish savodxonligi va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan pedagog olim Stella Cottrell o'zining *Critical Thinking Skills* asarida quyidagicha fikr bildiradi: "Tanqidiy fikrlash matnni chuqur tushunish, ma'lumotlarni taqqoslash va xulosalar chiqarish jarayonida rivojlanadi." [5:36] Ushbu fikr nasriy asarlarni mutolaa qilish jarayonining pedagogik ahamiyatini asoslaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari badiiy matnlarni o'qish jarayonida voqealarni tahlil qiladi, yashirin ma'nolarni anglaydi hamda muallif pozitsiyasini tushunishga harakat qiladi. Bu esa ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Fikr isbotini "Muammoli savollar" metodi yordamida ko'rib chiqsak.



Metodni qo‘llash misoli:

Asar: “Zumrad va Qimmat” ertagi (nasriy asar sifatida)

1-bosqich. Asarni o‘qish: O‘qituvchi ertakni ifodali o‘qib beradi yoki o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qiladi. O‘quvchilar asar mazmuni bilan tanishadi.

2-bosqich. Muammoli savollar berish: O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollarni beradi:

Nima sababdan Zumrad yaxshi natijaga erishdi?

Qimmatning xatti-harakatlarida qanday kamchiliklar bor edi?

Agar siz Qimmat o‘rnida bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutardingiz?

Ertak qahramonlarining xatti-harakatlari hayotda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

3-bosqich. Muhokama va tahlil: O‘quvchilar savollarga javob berish jarayonida qahramonlarning xarakterini tahlil qiladi, voqealarga baho beradi hamda o‘z fikrini asoslashga harakat qiladi.

4-bosqich. Xulosa chiqarish: O‘qituvchi o‘quvchilar fikrlarini umumlashtiradi va asarning tarbiyaviy g‘oyasini aniqlashga yo‘naltiradi. O‘quvchilar yaxshilik va mehnatsevarlik ijobiy natija berishini anglaydi.

Metodning pedagogik ahamiyati

Mazkur metod o‘quvchilarning: Mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, voqealarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi, mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, nutq faolligini oshiradi, hayotiy vaziyatlarga baho berish malakasini shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalalarini chuqur tadqiq etgan olim Matthew Lipman o‘zining Thinking in Education asarida quyidagicha ta’kidlaydi: “Ta’lim jarayoni o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatishi kerak, fikrni takrorlashga emas.”[2:18] Ushbu fikr zamonaviy ta’limning asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi. Nasriy asarlar asosida tashkil etilgan o‘qish darslari o‘quvchilarga tayyor xulosalarni berishdan ko‘ra, ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Masalan, hikoya yoki ertak qahramonlari harakatlarini muhokama qilish, voqealarning



muqobil yechimlarini topish o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyoti tadqiqotchisi Boqijon To'xliyev ning Bolalar adabiyoti asarida badiiy matnlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida quyidagicha fikr bildiriladi: "Badiiy adabiyot bolalar tafakkurini boyitadi, ularni hayotiy voqealarni anglashga, qahramonlar faoliyatiga baho berishga o'rgatadi." [6:41] Mazkur iqtibos nasriy asarlar o'quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi. Chunki, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarni egallab borishlari uchun, albatta, manbaa zarur. Bu manbaalarning eng to'g'rilasi esa nasriy asarlar hisoblanadi. Ushbu jarayonni "Role reversal analysis" metodi orqali yoritaman.

"Qahramon pozitsiyasini almashtirish" (Role Reversal Analysis) metodi

Metod mohiyati: Ushbu metodda o'quvchilar asardagi qahramonlar roliga kirib, voqeani boshqa nuqtai nazardan tahlil qiladi. Bu usul empatik va tanqidiy fikrlashni bir vaqtda rivojlantiradi. O'quvchi voqeaga bir tomonlama emas, turli pozitsiyalardan qarashni o'rganadi.

Nasriy asar misolida qo'llash

Asar: "Zumrad va Qimmat" ertagi

1-bosqich: Asarni o'qish: O'quvchilar asar mazmuni bilan tanishadi.

2-bosqich: Rolni almashtirish topshirig'i: sinf 3 guruhga bo'linadi:

1-guruh – Qimmat nomidan voqeani tushuntiradi

2-guruh – O'gay ona nomidan o'z harakatlarini asoslaydi

3-guruh – Kuzatuvchi (hakam) sifatida baho beradi

3-bosqich: Tahliliy savollar: O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

Qimmat nima uchun bunday yo'l tutdi?

O'gay ona o'zini oqlay oladimi?

Agar voqea boshqacha yakunlansa nima bo'lardi?

Qahramonlarning harakatlariga qanday muqobil yechim taklif qilasiz?



4-bosqich: Tanqidiy xulosa: O'quvchilar turli nuqtai nazarlarni eshitib, xolis baho berishga o'rganadi. Bu jarayonda ular: sabab-oqibatni aniqlaydi, empatiya hosil qiladi, dalillangan fikr bildiradi, bir vaziyatga turli qarashlar mavjudligini tushunadi. Metodning yangiligi va samaradorligi: Ushbu metod an'anaviy savol-javobdan farqli ravishda: o'quvchini faol subyektga aylantiradi, stereotip fikrlashni kamaytiradi, baholash va dalillash ko'nikmasini rivojlantiradi, ijodiy tafakkurni kuchaytiradi.

Bu metod ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashning boshlang'ich elementlarini shakllantirishda samarali hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasini tadqiq etgan pedagog olimi Ra'no Mavlonova o'zining Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi asarida quyidagicha ta'kidlaydi: "Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir." [3:17]

Ushbu qarash nasriy asarlarni mutolaa qilish orqali o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nasriy asarlarni maqsadli va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan mutolaa jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, voqealarni tahlil qilishi, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashi hamda asosli xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida muammoli savollar, rolni almashtirish, munozara, tahlil va taqqoslash kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni turli nuqtai nazardan fikr yuritishga undaydi. Natijada o'quvchilar nafaqat asar mazmunini anglaydi, balki qahramonlar xatti-harakatiga baho berish, muqobil yechimlar taklif qilish hamda o'z fikrini dalillar bilan asoslashni o'rganadi. Nasriy asarlarning tarbiyaviy va ma'naviy imkoniyatlari ham tanqidiy fikrlash rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki badiiy matn o'quvchini



hayotiy vaziyatlar bilan yuzlashtiradi, axloqiy tanlov qilishga undaydi va refleksiv tafakkurni shakllantiradi. Shu bois boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini faqat matnni o'qib tushuntirish bilan cheklamasdan, uni tahliliy va muhokamaviy faoliyat bilan boyitish zarur.

Umuman olganda, nasriy asarlar mutolaasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivoji, nutqiy kompetensiyasi hamda mustaqil fikrlash salohiyatini oshirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Husanboyeva Q, Hazratqulov M, Jamoldinova Sh "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi". Toshkent. 2020.
2. Matther Lipman "Thinking in Education". 2022
3. Mavlonova R "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi". Toshkent: "Akademnashr" nashriyoti 2021
4. Raxmonova G." Boshlang'ich sinflarda tafakkur faoliyatini rivojlantirish". Toshkent: "Sharq" nashriyoti 2020
5. Stella Cottrell "Critical Thinking Skills". 2018
6. To'xliyev B "Bolalar adabiyoti". Toshkent: "Munir" nashriyoti 2014

Internet saytlari:

7. Staff.tiliame.uz
8. Eyis.uz
9. Ziyonet.uz